

**JADIDCHILIK HARAKATI G'OVYALARI**

Muhammadaliyeva Munisaxon Adhamjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik, uning asoschisi jadidchilikning paydo bo'lishi, asosiy g'oya va maqsadlari mamlakat ravnaqi uchun olib borilgan jadidchilik siyosati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, islohot va mustaqillik uchun kurash.

---

Jadidchilik dastlab XIX-asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gaspirnskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyotparvar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyotparvar kuchlari, birinchi navbatda ziyorolar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloq qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tobori siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin.

Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnatish olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari

qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatni manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nonlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“ sida yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'lyovchi taraqqiyotparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand dehqon savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyplilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalq asriy qoloqlikdan uyg'otish - siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaliviy bilimdon mutaxassislari madaniyat arboblari yetishib chiqib yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qiladilar va shu yo'lida kurashadilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktabi tarmoqlarini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyorolarining kuchli partiyasi tashlil qilingan taqtirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloq etish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro Xiva konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qolish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va tarqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlari guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va

uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.


Turkiston mintaqasi asoschilari

Turkistikonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Maxmusxo'ja Behbudiy,Abduqodir Shukuriy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov turardi.

Turkiston jadidlarini birlashtirganda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingen Maxmudxo'ja Behbudiyning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yonidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'lboschchisi edi.

Mnavvarqori Abdurashudxonov (1878-1931) - Turkiston o'lkasida ozodlik millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri. U jadid maktablari ochilishu tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri va jadid teatri targ'ibotchisi edi. Jadidlar harakatining milliy xususiyatlari

Turkiston jadidchilik harakatining namoyondalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvarlar keng ma'noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilmsizlik, madaniyatsizlik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etiladi. Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlar Turkiston jadidlari faoliyatida ham paydo bo'ldi. Jumlada, ular tuzum, uning iqtisidiy, ijtimoiy va huququy sohalardagi barcha salbiy ko'rinishlariga va kamchiliklariga kurashish; maorif, erkinlik, hayotnih insoniy madaniy jihatlarini shakllantirish, ularni qo'llab quvvatlash va himoya qilishga sidqidildan intilish yo'lidan bordilar. Jadidlar Turkistonda azaldan mvjud bo'lgsan, ya'ni Alisher Navoiy Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyotparvar g'oyalarni davom ettirdilar. Turkiston ilg'or ziyorilari erishgan yutuqlari orasida eng salmoqlisi hukmon mafkuradan mustaqil bo'lgan xzilq ta'limi tizimining yaratilishi. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja kabilar "Tarbyayi atvol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborishgan.



Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston milliy aholini,jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy,madaniy-ma'rifiy turmushini,ong saviyasini ko'tarish,taraqqiy ettirish maqsadida juda kata madaniy ishlarni olib bordilar.Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobiga tasavvur va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zarur eta boshlagani kabi bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi masalasida bo'lган maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lган milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif paravonlarini soyasida vujudga keldi".

Jadidlar ta'limoti- o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi.Chunki unafaqat taraqqiyotparvar shaxslar,balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.


Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan halos bo'lishlarini ta'kidlaydilar.

Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarni egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar.Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi tog'risida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlaganlar.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar,zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lism kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar,buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha tozgan: To'y va maraka oqchasidan bolalarni..., talabalarni Makka, Madina,Misr ,Istanbul va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik qilgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti ilk maktablarini bitirgandan so'ng Turkiya, O'rningburg va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hatot haqiqati qurollantiradi. Tarixni yozish hech qachon o'ng tomong a ham ,chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat vaadolat nuqtai nazardan yo'l utilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning on-u dunyoqarashini chalg'itadi.

Eski tuzum davrida biz tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u soxta "dohiy" lar hayotini – hech qachon qayersa tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan – bilar edik, tog'rirog'I yodlab olgan edik. Ularni bobomiz,otamiz deb sig'inar edik. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni or- nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda ,qornimiz emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi. O'zingiz eslang bir vaqtlar kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yodqa tursin, hatto janozaga borish ham mumkin emas edi.



Yosh avlodning maktabdagagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir. Chunki jadidlar yosh avlodni ozodli, istiqbol, mustaqillik uchun kurashganlar. Shuni takidlash kerakki jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga gaqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalminallik, Vatan ravnaqi deb qaraydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlaringning milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb mazalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy – marifiy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy – ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinniki jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik qashshoqlikdan chor hukumat mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning ong –saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikri bugungu mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lin turmoqda.

#### **FOYDALANILFAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Oblomurodov N, Hazraztqulova A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
- 2.Karimov I.A Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B385
- 3.Behbudiy M.Muhtaram yoshlarga murojat.Oyna-1914.41-son.